

## INVESTITSIYALARNI JALB QILISHDA QULAY INVESTITSIYA MUHITINING AHAMIYATI

**O‘roqov Uchqun Yunusovich**

Toshkent moliya instituti dotsenti

**Rahimova Nozimaxon Jahongir qizi**

Toshkent moliya institut magistranti

### ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada investitsiya muhitining mohiyati, uni investitsiyalarni jalb qilishdagi ahamiyati, unga ta’sir etuvchi omillar yoritilgan. Mamlakatda investitsiya muhiti yaxshilash bo‘yicha amaliy taklif va tafsiyalar ishlab chiqilgan.

**Kalit so‘zlar:** investitsiya, investitsion muhit, investitsiya jozibadorligi.

### АННОТАЦИЯ

В данной статье рассматривается сущность инвестиционного климата, его роль в привлечении инвестиций, а также факторы, влияющие на него. Разработаны практические предложения и рекомендации по улучшению инвестиционного климата в стране.

**Ключевые слова:** инвестиции, инвестиционный климат, инвестиционная привлекательность.

### ABSTRACT

This article discusses the essence of the investment climate, its role in attracting investment, as well as the factors influencing it. Practical proposals and recommendations for improving the investment climate in the country have been developed.

**Key words:** investment, investment climate, investment attractiveness.

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida mamlakatga investitsiyalarini jalb etish iqtisodiyotda sog‘lom raqobat muhitini yaratishni taqozo etadi. Bugungi kunda milliy iqtisodiyotni investitsiya ko‘lamini oshirish asosida rivojlantirish davlatning bosh iqtisodiy siyosati hisoblanmoqda. Shundan kelib chiqqan holda investitsiya muhitini yaxshilash, mavjud imkoniyatlardan samarali foydalanish hamda chet el

investitsiyalarini faol jalb qilgan holda qo'shma korxonalarini tashkil etish muhim hisoblanmoqda.

Hozirgi kunda mamlakatimizda davlatning iqtisodiyotdagi ishtirokini kamaytirish bo'yicha institutsional va tarkibiy islohotlarni davom ettirish, xususiymulkchilikning huquqlarini himoya qilishni yanada kuchaytirish, viloyat, shahar va tumanlarni kompleks va muvozanatli ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, investitsiya muhitini yaxshilash yo'li bilan mamlakat iqtisodiyoti va mintaqalariga investitsiyalarni faol jalb qilishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Investitsiyalarni milliy iqtisodiyotga jalb etishdan manfaatdorlik har qanday davlatning o'z investitsiya siyosatini ishlab chiqishini talab etadi. Bu siyosat investitsiyalarni jalb etishning o'ziga xos yo'nalishini, shuningdek, ularni jalb etishni rag'batlantirish tizimini aniqlab beradi va investitsiya faoliyatining huquqiy tartibini belgilaydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasida: "Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, qaysi davlat faol investitsiya siyosatini yuritgan bo'lsa, o'z iqtisodiyotining barqaror o'sishiga erishgan. Shu sababli ham investitsiya – bu iqtisodiyot drayveri, o'zbekcha aytganda, iqtisodiyotning yuragi, desak, mubolag'a bo'lmaydi. Biz faqat investitsiyalarni faol jalb qilish, yangi ishlab chiqarish quvvatlarini ishga tushirish hisobidan iqtisodiyotimizni jadal rivojlantirishga erishamiz. Iqtisodiyotdagi ijobiy natijalar esa ijtimoiy sohada to'planib qolgan muammolarni tizimli hal etish imkonini yaratadi. Buni hammamiz chuqur tushunib olishimiz va ishimizni shu asosda tashkil etishimiz shart."<sup>12</sup>, deb ta'kidlab, investitsiyalarning iqtisodiyotni rivojlantirishdagi g'oyat muhim ahamiyatini va uni jalb qilishning dolzarbligini e'tirof etadi.

2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasining uchinchi bandida investitsiya muhitini takomillashtirish, mamlakat iqtisodiyoti tarmoqlari va hududlariga xorijiy, eng avvalo, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni faol jalb qilish vazifalari belgilangan edi<sup>13</sup>. O'tgan 5 yil davomida bu qo'yilgan maqsadlar va vazifalar ijrosini amalga oshirilishi natijasida ijobiy natijalarga erishildi. "...Natijada iqtisodiyotimizga jalb qilingan yillik xorijiy investitsiyalar hajmi uch yarim barobarga oshib, oxirgi 5 yilda ularning umumiy qiymati 25 milliard dollarni tashkil etdi"<sup>14</sup>.

<sup>12</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga Murojaatnomasi. «Xalq so'zi» gazetasi, 2018 yil 29 dekabr № 271-272 (7229-7230) soni

<sup>13</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida" PF 4749-son Farmoni, 07.02.2017 y.

<sup>14</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning Toshkent xalqaro investitsiya forumining yalpi sessiyasida so'zlagan nutqidan. <http://uza.uz>. 24.03.2022 y.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” gi Farmonining 26-maqсадida mamlakatda investitsiya muhitini yanada yaxshilash va uning jozibadorligini oshirish, kelgusi besh yilda 120 milliard AQSh dollari, jumladan 70 milliard dollar xorijiy investitsiyalarni jalb etish choralari ko‘rish vazifasi belgilangan<sup>15</sup>.

Jahon amaliyotidan shu narsa bizga ma‘lumki, rivojlanish sari borayotgan har bir davlat o‘z ichki investitsiyalarini va tashqi investitsiyalarni milliy iqtisodiyotning barcha sohalariga yo‘naltirishga intiladi. Chunki investitsiyalarning butun iqtisodiyotni qamrab olishi bir paytning o‘zida mamlakatda barcha tarmoq va sohalarning rivojlanishi va takomillashuviga olib keladi. Rivojlangan mamlakatlar amaliyoti shuni ko‘rsatadiki, investitsiyalarni jalb qilmay turib, iqtisodiyotni yetarli darajada rivojlantirib bo‘lmaydi.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlarning tahlili shuni ko‘rsatadiki, qo‘lga kiritilayotgan yutuq va muvaffaqiyatlarda iqtisodiyotni modernizatsiyalash, buning uchun esa faol investitsion siyosat yuritishning o‘rni juda muhimdir. O‘zbekiston Respublikasining iqtisodiy barqarorligini ta‘minlashning muhim shartlaridan biri ham qulay investitsiya muhitini shakllantirish va jozibadorligini oshirish hisoblanadi. Qulay investitsiya muhitini shakllantirish va jozibadorligini oshirish iqtisodiyot tarmoqlarini yanada erkinlashtirishga, ular o‘rtasidagi raqobat muhitini takomillashtirishga, iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlashga, tashqi iqtisodiy aloqalarni kengaytirishga, ishchi kuchi masalasini oshirishga va ular bandligini ta‘minlashga juda katta ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi.

Qulay investitsiya muhitini shakllantirish va jozibadorligini oshirish iqtisodiyot tarmoqlarini yanada erkinlashtirishga, ular o‘rtasidagi raqobat muhitini takomillashtirishga, iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlashga, tashqi iqtisodiy aloqalarni kengaytirishga, ishchi kuchi masalasini oshirishga va ular bandligini ta‘minlashga juda katta ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi.

Investitsiya muhiti tushunchasi o‘zining murakkabligi va mukammalligi jihatidan makro va mikro iqtisodiyot darajasida ko‘rib chiqiladi. Makroiqtisodiyot darajasida u kapitalni qabul qiluvchi mamlakatdagi mavjud siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy holatlarni o‘z ichiga oladi. Makroiqtisodiyot darajasida yondashilganda xorijiy investitsiyalarga nisbatan davlat siyosati, xalqaro shartnomalar shartlarini bajarish, xorijiy mulkni milliylashtirish, turli masalalar bo‘yicha xalqaro shartnomalar tizimida ishtirok etish, davlat boshqaruv tizimlarining mustahkamligi, siyosiy rahbariyatning muqarrarligi,

<sup>15</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” gi PF-60-sonli Farmonining 1-ilovasi

davlatning iqtisodiyotga aralashish darajasi, iqtisodiy siyosatning mukammalligi, davlat apparatining ish samaradorligi, banklar tizimining takomillashuv darajasi, pul muomalasi va davlat budjetining barqarorligi, davlatning ichki va tashqi qarzlari miqdori va boshqalar hal qiluvchi o' rinda turadi. Investitsiya muhitiga kapitalni qabul qiluvchi mamlakatning qonunlarida aks ettirilgan to'g'ridan-to'g'ri harajatlar va xorijiy firmalarining faoliyatini chegaralovchi yoki taqiqlovchi omillardan tashqari, to'liq aniqlanmagan ba'zi bir qoidalar va muvofiqlashtirilmagan jarayonlarning mavjudligi salbiy ta'sir etadi.

Mikroiqtisodiyot darajasida investitsiya muhiti bir tomondan investor firmasi va ikkinchi tomondan xorijiy investitsiyani qabul qiluvchi xo'jalik subyektlari, ya'ni sotuvchilar, sotib oluvchilar, banklar hamda kasaba uyushma va boshqa jamoat tashkilotlari o'rtasidagi ikkiyoqlama munosabatlarni aks ettiradi. Bu darajada investitsiya muhiti umumlashtirilgan baholar iqtisodiy, huquqiy va ma'daniy jabhalarda yaqqol ko'rinadi. Makro va mikroiktisodiyot darajalari birgalikda yagona investitsiya muhitini tashkil etadi va potensial investorlar hamda kapitalni qabul qiluvchi tomonlarning bo'lajak munosabatlarini belgilab beradi.

Odatda mamlakatda yaratilgan investitsiya muhiti ikki asosiy yo'nalishda – “xatar (tavakkalchilik)” va “imkoniyat (daromadlilik)” ko'rinishida tavsiflanib, investitsiyalar kiritilishi va o'zlashtirilishida kelib chiqishi mumkin bo'lgan xavf-xatarlar va daromadlar olish uchun yaratilgan iqtisodiy, ijtimoiy, huquqiy imkoniyat va imtiyozlar tizimini o'z ichiga oladi. Iqtisodiy adabiyotlarda uni tahlil qilishda asosiy e'tibor ichki va tashqi xususiyatlarga qaratilishi va bu yo'nalishda investitsiya muhitining rivojlanish darajasi, uning jozibadorligi va investitsiya xatarini aniqlash usullarining ahamiyati muhimligi e'tirof etiladi.

Investitsiya muhiti bu – investitsiya qabul qilayotgan davlatning mahalliy yoki xorijiy investorlar uchun huquqiy, siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va eko-geografik jihatdan yaratilgan maksimal darajadagi shart-sharoitlar va minimal darajadagi risklar majmuidir. Bundan kelib chiqqan holda, investitsiya muhiti jozibadorligi – investorlar sarmoyasini jalb qilishda mavjud imkoniyatlar va muhitda yaratilgan sharoitlarning eng maqbullarini ko'rsatib bera olish darajasi. Qulay investitsiya muhitini shakllantirish va rivojlantirish munosabatlari yuqorida ta'kidlanayotgan huquqiy, siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va eko-geografik omillarning ta'sirida rivojlanar ekan, ularni turli mezonlar bo'yicha tizimga solish va guruhlash mumkin.

Hech qaysi mamlakat rivojlangan davlatlarning amaliyoti va nazariyasini o'rganmasdan, jahon hamjamiyatidan ayri holda rivojlanmaydi. Shunday ekan, har bir davlat ishlab chiqarishni namunali tashkil etish, iqtisodiyotda yuqori ko'rsatkichlarga erishish, aholining ijtimoiy turmush darajasini oshirish uchun xorijiy hamkorlar bilan

o‘zaro manfaatli hamkorlikni yo‘lga qo‘yishi maqsadga muvofiqdir. Bu borada u yoki bu mamlakatdagi investitsion muhit muhim ahamiyat kasb etadi. Qayerdagi qulay investitsion muhit mavjud bo‘lsa, o‘sha tomonga iqtisodiyotni harakatga keltiruvchi kuch – investitsiyalar oqimi tezlashadi.

Mamlakatning zamonaviy iqtisodiy rivojlanish darajasi investitsiyaning faolligi sur‘atlariga, bu esa, iqtisodiyot bir tekis o‘sib borishi va taraqqiy etishini belgilovchi investitsion muhitga bog‘liq.

Investitsion muhitning muhim tarkibiy qismi davlatning qonunchilik bazasidir. O‘zbekistonda davlat mustaqilligi qaror topgan nisbatan qisqa vaqt oralig‘ida investitsiya sohasida ishonchli me‘yoriy-huquqiy baza yaratildi. Qulay investitsiya muhitini shakllantirish va rivojlantirish munosabatlari yuqorida ta’kidlanayotgan huquqiy, siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va geografik omillarning ta’sirida rivojlanar ekan, ularni quyidagi 1-jadval ko‘rinishida bir tizimga solish va guruhlash mumkin.

### 1-jadval

#### Qulay investitsiya muhitini shakllantirishga ta’sir etuvchi asosiy omillar<sup>16</sup>

Asosiy omillar			
Huquqiy:	Siyosiy:	Ijtimoiy-iqtisodiy:	Geografik:
<ul style="list-style-type: none"> <li>- qonun ustuvorligi</li> <li>- qonunchilik bazasining keng qamrovligi, oshkoraligi va mustaqilligi</li> <li>- qonunchiligimizdagi din erkinligi, irqchilikka yo‘l qo‘yilmasligi.</li> <li>- qonun oldidai barchaning teng huquqliligi,</li> <li>- qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud-huquq tizimlarining oshkoraligi va samarali faoliyat yuritishi.</li> <li>- ommaviy axborot vositalarining erkinligi va oshkoraligi</li> <li>- ijtimoiy-huquqiy kafolatlar tizimining amal qilishi</li> <li>- va boshqalar</li> </ul>	<ul style="list-style-type: none"> <li>- siyosiy tinchlik</li> <li>- siyosiy mustaqillik</li> <li>- siyosiy barqarorlik</li> <li>- siyosiy daxlsizlik</li> <li>- siyosiy</li> <li>partiyalarning jamiyat bilan uzviy holda faoliyat yuritishi</li> <li>- va boshqalar</li> </ul>	<ul style="list-style-type: none"> <li>- iqtisodning siyosatdan ustunligi</li> <li>- iqtisodiy barqarorlik</li> <li>ijobiy iqtisodiy o‘shish sur‘atlari</li> <li>- kuchli ijtimoiy himoya</li> <li>- moliya tizimining rivojlanayotganligi</li> <li>- bank tizimining samarali faoliyat ko‘rsatishi</li> <li>- iqtisodiy va ijtimoiy infratuzilmaning mavjudligi</li> <li>- yuqori malakali, salohiyatli mehnat resurslarining mavjudligi</li> <li>- va boshqalar</li> </ul>	<ul style="list-style-type: none"> <li>- geografik jihatdan qulay joylashuvi</li> <li>- to‘rt faslning mavjudligi va o‘z vaqtida kelishi</li> <li>- hududlarning ekologik tozaligi</li> <li>- tabiiy resurslar va yer osti qazilmalariga boyligi</li> <li>- va boshqalar</li> </ul>

<sup>16</sup> Mustafaqulov Sh.I. Investitsion muhit jozibadorligi: ilmiy-amaliy qo‘llanma. Monografiya. Baktria Press Toshkent. 2017 y. 319 bet.

Investitsion muhit muayyanligini bu borada faoliyatning maqsadga muvofiqligi va jozibadorligini aniqlaydigan iqtisodiy, ijtimoiy, tashkiliy, huquqiy, siyosiy va boshqa shart-sharoitlarni umumlashtiruvchi xususiyatlari belgilab beradi. Investitsiya faoliyatiga ta'sir ko'rsatuvchi bu omillarning o'zaro bog'liq majmui u yoki bu mamlakat iqtisodiyotidagi hal qiluvchi investitsion muhit hisoblanadi. Demak, investitsion muhit haddan tashqari ko'p o'lchovli, murakkab va serma'no tushunchadir.

Amaliyotda investitsion muhitning moliyaviy jihatlari sifatida byudjet, to'lov balansi, davlat qarzlari, bojxona bojlarining kattaligi, bank tizimi, konvertatsiya muammosi, to'lovlar, soliq va soliqqa tortishning qoniqarsizligi, soliq tizimi, soliq yuki va undagi yig'imlar katta muammolardan hisoblanadi. Bu esa hududlarda xorijiy sarmoyalarni jalb etishdagi asosiy muammolardan biri hisoblanadi. Investitsiya muhitiga ta'sir etuvchi omillardan biri bular: "investitsion salohiyat" va "investitsion risklar"dir. Ma'lumki investitsion salohiyat deganda iqtisodiy faoliyatda foydalaniladigan ishlab chiqarish zaxiralari, quvvatlari, kuchlari, imkoniyatlari kabilardan iborat resurslar yig'indisi tushuniladi.


Investitsion salohiyat foyda olish yoki ijobiy ijtimoiy samaraga erishish maqsadida uzoq muddat foydalaniladigan aktivlarga mablag' kiritish imkoniyatlari darajasini tavsiflaydi.

Investitsion salohiyat mamlakatda asrlar davomida shakllangan bir qancha omillar yig'indisini aks ettiradi. Bu omillar ishlab chiqarish, mehnat, iste'mol, infratuzilma, innovatsiya, tabiiy resurs, moliyaviy salohiyat, institutsional salohiyat va turizm salohiyati kabi omillarni qamrab oladi (1-rasm).

Ishlab chiqarish salohiyati mamlakatdagi mavjud ishlab chiqarish quvvatlari, ishlab chiqarish vositalari, iqtisodiyot tarkibi, qazib oluvchi, qayta ishlovchi sanoat tarmoqlari, muvafaqqiyatli amalga oshirilgan investitsion loyihalar soni (qo'shma korxonalar tomonidan amalga oshirilgan investitsion loyihalarni ham qo'shgan holda), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatining rivojlanish holati va boshqalarni ifodalaydi. Texnika-texnologiya salohiyati mamlakatdagi mashina-mexanizmlar miqdori, ularning tarkibi, texnologik tizim kabilardan iborat bo'lib, u fan yutuqlari va ularni qay darajada tatbiq etilishi bilan bog'liq.

Mehnat salohiyati iqtisodiy faol aholi soni, yoshi, aholining bilim darajasi kabi kabilarni tavsiflaydi. Shuningdek, intellektual salohiyat ishlab chiqarishga layoqatli, bilim, malaka, mahoratga ega bo'lgan kishilardan iborat bo'lsa u jamiyat a'zolarining ilmiy, ma'rifiy, ma'naviy, intellektual salohiyatini ko'rsatadi. Qoida tarzida, xorijiy investorlarni malakali ish kuchi va arzon ish haqi to'lanadigan hududlar jalb qiladi.





**1-rasm. Investitsiya muhitiga ta'sir qiluvchi omillar<sup>17</sup>**

Iste'mol salohiyati investorlar tomonidan mamlakatda ishlab chiqarilgan mahsulotlarning ichki bozorda qancha ulushda sotilishi, shu asosda talabni o'rganish, raqobatchilar va aholining daromadi sifatida qaraladi.

Infratuzilma salohiyati ishlab chiqarish va tovar muomalasi, shuningdek, inson hayot faoliyati uchun zarur bo'lgan me'yoriy sharoitni ta'minlashga xizmat qiluvchi turli-tuman yordamchi xizmat ko'rsatuvchi sohalar (tashkilot, korxonalar va muassasa) majmuidir. Infratuzilma xizmat ko'rsatish sohasiga ko'ra ishlab chiqarish infratuzilmasi (ishlab chiqarishga xizmat ko'rsatuvchi sohalar — yuk tashish transporti, elektr va issiqlik ta'minoti, yo'l xo'jaligi, suv xo'jaligi, ombor xo'jaligi, ilmiy konstruktorlik xizmati, axborot xizmati va boshqalar) va ijtimoiy-maishiy infratuzilma (aholiga xizmat ko'rsatib, uning ehtiyojini qondiruvchi sohalar — maorif, sog'liqni saqlash, jismoniy tarbiya va sport, maishiy xizmat va boshqalar)ga ajraladi.

Innovatsion salohiyat mamlakatdagi ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlanmalari, texnika va texnologiyalarning yangilanish darajasi (yangi avlodi), milliy ishlab chiqarishdagi yangiliklar, kashfiyotlarni tavsiflaydi.

Tabiiy resurs salohiyati tabiiy resurslar miqdori va sifati, mamlakatning iqlimi, tabiiy-geografik shart-sharoitlarini o'z ichiga oladi. Tabiiy resurs omillari ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirishda muhim o'rin tutadi va quyidagilarni, ya'ni mineral resurslar (foydali qazilmalar); agromuhit shart-sharoitlari; yer va suv resurslari; o'simlik va hayvonot dunyosi hamda boshqalarni qamrab oladi.

<sup>17</sup> Ilmiy izlanishlar natijasida mualliflar tomonidan ishlab chiqilgan.

Moliyaviy salohiyat mamlakatning moliyaviy imkoniyatlari, iste'mol va jamg'armaning nisbati, bank sohasida pul-kredit va deposit siyosati, tashqi qarzlar holati, ichki zahiralari va boshqalarni xarakterlaydi.

Institutsional salohiyat bozor iqtisodiyotining yetakchi institutlarining rivojlanganlik darajasi bilan bog'liq bo'lib, menejment, tashkiliy struktura, rejalashtirish, xodimlarni boshqarish, moliya, moddiy texnik ta'minot kabi sohalarni hamda hukumat va tarmoq strukturalari, ya'ni vazirliklar, idoralar, banklar, tadqiqot muassasalari qamrab oladi.

Turizm salohiyati bu ma'lum bir sohada turistik faoliyatni tashkil etish uchun tabiiy, tarixiy va ma'daniy yodgorliklar va tadbirlar, shuningdek, ijtimoiy-iqtisodiy va texnologik shartlar yig'indisidir.

Investitsiya jarayoni katta mablag'larni talab qilgani va uzoq muddatli bo'lgani sababli, ushbu jarayonda yuzaga kelib qolishi mumkin bo'lgan yo'qotishlarni, risklarni va noaniqliklarni hisobga olish zarur.

Xulosa qilib aytganda, investitsion muhit – investitsiya munosabatlarini amalga oshirish mumkin bo'lgan imkoniyatlar va qulayliklar majmuini aks ettiruvchi voqe'likdir. Aniqrog'i, investitsiya muhiti deganda banklar va jismoniy shaxslarning investitsiya kiritish va qarz berish salohiyatiga ta'sir qiladigan mamlakatdagi iqtisodiy, moliyaviy va ijtimoiy-siyosiy sharoitlar tushuniladi. Investitsion muhit obyekt kategoriyasi bo'lib, har bir alohida olingan vaqt doirasida investorlar uchun haqiqatda mavjud bo'lgan shart-sharoitlar majmuasini aks ettiradi. Lekin hozirgi sharoitda investitsion muhit faqat davlat organlarining ta'siri ostida shakllanmoqda. Albatta, bu ishlarni amalga oshirishda jahon tajribasidan, jumladan, xorijiy investitsiya bilan tashkil etilib, yuksak iqtisodiy ko'rsatkichlarga erishgan kompaniya va firmalar tajribasidan kengroq foydalanish kerak. Bu jarayonni amalga oshirishda milliy xususiyatlarni ham hisobga olish lozim.

Investitsiyalarni jalb etish orqali sanoatni, yangi zamonaviy texnologiyalar bilan qishloq xo'jaligida qayta ishlovchi sanoat majmuini va boshqa sohalarda tub o'zgarishlar yasash mumkin. Shunday ijobiy ishlarni amalga oshirish uchun investorlarga qulay bo'lgan investitsion muhitni yaratib berish kerak. Investitsion muhit iqtisodiyotda yangi tushuncha emas. Bir qator rivojlangan davlatlar bu jarayonni ijobiy tarzda amalga oshirgan. Investitsion muhitning ahamiyati, amaliy jihatdan, qaysi boyliklar va yo'nalishlar tizimi asosida xorijiy investorlar faoliyat yuritishlari to'g'risida tushuncha beradi va shuning negizida xorijlik investorlarga nisbatan qanday munosabatda bo'lishni ishlab chiqishga imkoniyat yaratadi.



**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR (REFERENCES)**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida” PF 4749-son Farmoni, 07.02.2017 y.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-sonli Farmoni, 28.01.2022 y.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga Murojaatnomasi. «Xalq so‘zi» gazetasi, 2018 yil 29 dekabr № 271-272 (7229-7230) son
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning Toshkent xalqaro investitsiya forumining yalpi sessiyasida so‘zlagan nutqidan. <http://uza.uz>. 24.03.2022 y.
5. Abdug‘aniyeva Xumora Baxtiyor qizi, O‘roqov Uchqun Yunusovich. Davlat maqsadli jamg‘armalarining iqtisodiy-ijtimoiy ahamiyati va so‘ngi yillardagi o‘zgarishlar. Journal of new century innovations. Volume – 6\_Issue-7\_Iyun\_2022
6. Б.К.Гайибназаров, Н.Х.Хайдаров. ОБЪЕКТИВНАЯ СТАТИСТИКА–БАРОМЕТР ОТРАЖЕНИЯ СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ СТРАНЫ. 2019
7. Н.Х.Хайдаров. Роль иностранных инвестиций в финансовом оздоровлении Узбекистана. Финансы и кредит, 2001
8. Nizamiddin Khaydarov. Agricultural Development in Uzbekistan: Agricultural Reforms versus Transboundary Water Issues. Developing Country Studies [www. iiste. org](http://www.iiste.org). ISSN. 2015
9. Mustafaqulov Sh.I. Investitsion muhit jozibadorligi: ilmiy-amaliy qo‘llanma. Monografiya. Baktria Press Toshkent. 2017 y. 319 bet.
10. Хайдаров Н.Х. Молия: умумдавлат молияси. Т.: Иқтисод-молия, 2009
11. Т.Маликов, Н.Хайдаров. Давлат бюджети. Т.: “ИQTISOD-MOLIYA, 2007
12. Г.Г.Назарова, Н.Х.Хайдаров, М.Акбаров. Халқаро иқтисодий муносабатлар. - Т.: МЧЖ “RAM-S”, 2007
13. G.G.Nazarova, N.X.Haydarov, M.T.Akbarov. Xalqaro iqtisodiy munosabatlar. - Т.: MChJ “RAM-S”, 2007
14. Т.Маликов, Н.Хайдаров. Бюджет: тизими, тузилмаси, жараёни. 2007
15. G.G.Nazarova, N.X.Haydarov. International economic relations. Educational Manual. TDIU, 2005

16. Н.Хайдаров. Солиқлар ва солиққа тортиш масалалари. Ўқув қўлланма. Тошкент: Академия, 2007
17. Н.Хайдаров. Иқтисодий эркинлаштириш шароитида корхоналар инвестицион фаолиятидаги молия-солиқ муносабатларини такомиллаштириш масалалари. Иқтисод фанлари доктори илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация автореферати. Т.:2003
18. N.X.Haydarov. O‘zbekiston Respublikasi ta’lim tizimini rivojlantirishda Davlat moliyasining o‘rni. Iqtisod va moliya.-Toshkent, 2013
19. Nizamiddin Khaydarov. INTERNATIONAL EXPERIENCE OF THE DEVELOPMENT OF TOURISM IN UZBEKISTAN. Интеграция. Эволюция. Устойчивость: пути развития социально-экономических систем. Материалы I Международной научно-практической конференции. 2021
20. Н.Х.Хайдаров. Ўзбекистон Республикаси таълим тизимини ривожлантиришда давлат молиясининг роли. Экономика и финансы (Узбекистан), 2013
21. Nizamiddin Khaydarov. Agricultural Development in Uzbekistan: Agricultural Reforms versus Transboundary Water Issues. Developing Country Studies. ISSN 2224-607X (Paper) ISSN 2225-0565 (Online) Vol.5, No.10, 2015
22. Uroqov Uchqun, Yuldasheva Nadira, Nuritdinova Vasila, Tukhtabayeva Sogdiana. Budgetary methods for local budgets. Journal of Advanced Research in Dynamical and Control Systems. DOI: 10.5373/JARDCS/V12I6/ S20201165
23. У.Ю. Уроков. Пути повышения независимости местных бюджетов. Автореферат доктора философских наук, 2020
24. Uroqov Uchqun. Increasing the independence of local budgets in the social and economic development of the regions. // International Journal of Economics, Commerce and Management. United Kingdom ISSN 2348 0386 Vol.VII, Issue12, December 2019
25. Urokov Uchkun Yunusovich, Toshmatova Rano Gaipovna, Sharapova Mashhura Azadovna, Ismailova Nasiba Komiljonovna, Isaev Husan Mansurovich. Matters of revenue generation and cost optimization while increasing the efficiency of the state budget. Journal of Hunan University (Natural Sciences) Vol. 48. No. 12. December 2021
26. У.Ўроков. Давлат харидлари тизими: кеча ва бугун. «Бозор, пул ва кредит» журналы, 8-сон, 2018 й.
27. U.O‘roqov, Sh.A.Rayimqulova. O‘zbekistonda qulay investitsiya muhitini shakllantirish masalalari. Science and Education, 2022

28. Уроков У.Ю., Юлдашева Н.В. Пути повышения финансовой самостоятельности местных бюджетов Республики Узбекистан // Интернаука: электрон. научн. журн. 2022. № 3(226).
29. U. O‘roqov, Tursunova Zulayho Abdujobir qizi. O‘zbekistonda davlat tashqi qarzini samarali boshqarishda davlat qarziga xizmat ko‘rsatish kafolat jamg‘armasining o‘rni. Science and Education, 2022
30. O‘roqov Uchqun Yunusovich, Abduazimova Farzona Axmadqul qizi. Davlat maqsadli jamg‘armalarining mamlakatni ijtimoiy- iqtisodiy rivojlantirishdagi ahamiyati. Science and Education, 2022
31. U.Yu. O‘roqov, J.A.Yomg‘irov. Mahalliy byudjetlar barqarorligini ta‘minlash masalalari. Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS). 2022
32. U.Yu. O‘roqov, N.M.Anvarov. Mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishda byudjet-soliq siyosatining ahamiyati Barqarorlik va Yetakchi Tadqiqotlar onlayn ilmiy jurnali (ISSN - 2181-2608). 2022
33. U.O‘roqov, Sh.A.Rayimqulova. O‘zbekistonda qulay investitsiya muhitini shakllantirish masalalari. Science and Education, 2022
34. O‘roqov Uchqun Yunusovich, Moyliyev Murod Baxtiyorovich, Muzaffarov Muhammadjon Maxmud o‘g‘li. Mamlakat investitsiya jozibadorligini oshirish orqali xalqaro kapitalni jalb qilish masalalari. Science and Education, 2022